



UDK:30.71

Madinabonu ABDULLAYEVA,
Namangan davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail: abdullaevamadina@gmail.com

NamDU dotsenti PhD D.Sarimsakova taqrizi asosida

1-2-SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA MNEMONIKA METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Yosh o'quvchilarga, xususan, 1-2-sinf o'quvchilariga leksikani o'rgatish ularning chet tilni umumiy bilishi uchun poydevor yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda o'quvchilar chet tilni o'zlashtirishning dastlabki bosqichida bo'lib, o'rganishni samarali va qiziqarli qiladigan usullarni joriy etish zarur. Bunday yondashuvlardan biri mnemonika bo'lib, u o'quvchilarga yangi leksikani tanish tushunchalar, tasvirlar yoki tovushlar bilan bog'lash orqali ma'lumotni eslab qolishni osonlashtiradi. Ushbu maqolada mnemonikaning 1-2-sinf o'quvchilariga ingliz tili leksikasini o'rgatishdagi o'rni, uning samaradorligi, qo'llash usullari va amaliy misollar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tilni o'zlashtirish, ingliz tili lug'atini o'rgatish, o'quvchilar, mnemonika.

USE OF MNEMONICS METHOD IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO PUPILS IN GRADES 1-2

Annotation

Teaching vocabulary to young learners, particularly those in Grades 1-2, is crucial in setting a foundation for their overall language proficiency. At this stage, pupils are in the early stages of language acquisition, making it essential to introduce methods that make learning both effective and engaging. One such approach is the use of mnemonics, a memory-enhancement technique that helps learners retain and recall information more easily by associating new vocabulary with familiar concepts, images, or sounds. This article will explore the role of mnemonics in teaching English vocabulary to pupils in Grades 1-2, discussing its effectiveness, methods of application, and practical examples.

Key words: Language acquisition, teaching English vocabulary, young learners, pupils, mnemonics.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА МНЕМОНИКИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ 1-2 КЛАССОВ

Аннотация

Обучение лексике младших школьников, особенно учащихся 1-2 классов, имеет решающее значение для создания основы для их общего владения языком. На этом этапе ученики находятся на ранних стадиях освоения языка, поэтому важно внедрять методы, которые делают обучение эффективным и интересным. Одним из таких подходов является использование мнемоники, техники улучшения памяти, которая помогает учащимся легче удерживать и вспоминать информацию, связывая новую лексику со знакомыми понятиями, изображениями или звуками. В этой статье будет рассмотрена роль мнемоники в обучении английской лексике учеников 1-2 классов, обсуждается ее эффективность, методы применения и практические примеры.

Ключевые слова: Усвоение языка, обучение английской лексике, учащиеся младшего возраста, ученики, мнемоника.

Kirish. Odatda 1-2-sinf o'quvchilariga ingliz tilida leksikani o'rgatish jarayonida ingliz tilidagi so'zlarni hotirada saqlab qolish qiyinchiliklariga duch kelishadi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida turli usullardan keng foydalaniladi. Biz ilgari surmoqchi bo'lgan va eng samarali usullardan biri bu - Mnemonics (mnemonika)dir. Mnemonika - bu inson ongida miya faoliyati orqali qurilgan vizual-majoziy xotira bo'lib, uning natijasida so'zlar oson va uzoq vaqt esda qoladi [1]. Ingliz tili lug'atlarida "mnemonics", "mnemonic" va "mnemotechnic" tushunchalariga duch kelamiz. Rus tilida bu konsepsiyalar bir-biri bilan sinonim tarzida qollaniladi. Aslida esa, bu tushunchalar deyarli bir xil ma'noni bildiradi va faqatgina shaklan farqli bo'lishi mumkin. MacMillan inglizcha lug'atida "mnemonic" biror narsani eslab qolish uchun ishlatiladigan jumla sifatida ta'rif berilgan [4]. Mnemotechnic - mnemonikaning boshqa nomi bo'lib, ushbu atama 19-asrning o'rtalarida Oxford inglizcha lug'atiga kiritilgan bo'lib, xotiraning sig'imi yoki potentsialiga ishora qiladi [3]. Bundan tashqari, ingliz tilida biz "mnemonik texnikalar", "mnemonik strategiyalar" va "mnemonik qurilmalar" tushunchalarini uchratishimiz mumkin (rus tilida esa bir xil narsa bo'lgan mnemonik yoki mnemotexnika konsepsiyasini ko'ramiz). Aslida esa aksar hollarda ingliz tilida ham bu atamalarining barchasi sinonim sifatida ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mnemonika - leksikani o'rganishni osonlashtirishga qaratilgan turli xil usullar majmuasidir [1]. Ingliz tilini endigina o'rganishni boshlagan o'quvchilarda yangi so'zlarni xotirada saqlab qolish qiyin kechadi. Tasvirlar bilan bog'liq assotsiatsiyalardan foydalanish (visualising) esa o'quvchilarning hissiy-majoziy xotirasiga ya'ni miyaning o'ng yarim shari ustunligi bo'lgan bolalarda xotirada saqlash jarayonini rivojlanadi [2].

Mnemonikaning asosiy vazifasi - bevosita xotirani yaxshilashdir. Inson xotirasini kuchaytirish va o'rganilgan ma'lumotlarni samarali tarzda qayta ishlashga yordam berishadi. Bu metod ko'pincha o'quvchilar va talabalar uchun yangi so'zlarni, faktlarni yoki tushunchalarni osonroq eslab qolishga imkon beradi.

Lokalizatsiya (joy) xotira uchun muhim moment bo'lib, miya biror narsani saqlashi uchun xotirada saqlanadigan boshqa ma'lumotlarning massasiga nisbatan xotirada joy ajratilishi (lokalizatsiyasi) kerak [4]. Shunday qilib, mnemonik yodlash quyidagi bosqichlardan iborat: tasvirlarni kodlash, ularni ulash, ketma-ketlikni eslab qolish va xotirada mustahkamlash [5].

Tasvirlarni kodlash: Bu bosqichda o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar vizual yoki boshqa sezgi orqali esda qolishi uchun kodlanadi. Masalan, yangi so'zlar yoki tushunchalar o'quvchiga tushunarli va qiziqarli tasvirlar bilan bog'lanadi. Tasvirlar, ranglar yoki ovozlarni orqali ma'lumotlarni aniqroq va esda qolarliroq qilish mumkin.

Ular ulash: Keyingi bosqichda kodlangan tasvirlar yoki ma'lumotlar o'zaro bog'lanadi. Bu bog'lanishlar ko'pincha mantiqiy yoki qiziqarli assotsiatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, so'zlarning ma'nolarini bir-biriga ulash yoki ularga bir xil xususiyatlarni qo'shib, xotirada yaxlit bir hikoya hosil qilinadi.

Ketma-ketlikni eslab qolish: Ma'lumotlarning tartibini eslab qolish muhim bosqichdir. Ketma-ketlikda eslab qolish ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi va ularga aniqlik kiritadi. Bu bosqichda ma'lumotlar to'plami bir izchillik bilan yodlanadi. Misol uchun, bir voqeani yoki so'zlar ro'yxatini ketma-ket aytish orqali ularni yaxshi eslab qolish mumkin.

Xotirada mustahkamlash: Oxirgi bosqichda yodlangan ma'lumotlar muntazam takrorlash va mashq qilish orqali xotirada mustahkamlanadi. Bu jarayon davomida o'rganilgan tasvirlar va ularning o'zaro bog'liqligi xotirada kuchayadi, shuningdek, ma'lumotni uzoq muddat eslab qolish imkonini beradi. Bu bosqichlar birgalikda mnemonik yodlash texnikasining samarali ishlashini ta'minlaydi. To'g'ri kodlangan va bog'langan ma'lumotlar, to'g'ri ketma-ketlikda eslab qolinish, muntazam takrorlash orqali uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi.

Mnemonika uchta tabiiy qonunga asoslanadi: taassurot, takrorlash, assotsiatsiya – yodlash va ma'lumotni eslab qolishni oson qilishning muhim tamoyillarini ifodalaydi.

Taassurot (Impression): Taassurot qonuni yodlash jarayonida dastlabki ma'lumotlarni qanchalik chuqurroq va ta'sirchanroq qabul qilish bilan bog'liq. O'rganilayotgan ma'lumotlar qanchalik qiziqarli, o'ziga xos yoki hayratlanarli bo'lsa, ular xotirada shunchalik chuqur iz qoldiradi. Masalan, vizual tasvirlar, rangli grafikalar, qiziqarli ovozlari yoki hissiy tajribalar ma'lumotlarni oson eslab qolishga yordam beradi. Taassurot qancha kuchli bo'lsa, ma'lumot xotirada uzoqroq saqlanadi.

Takrorlash (Repetition): Xotirada mustahkamlanish uchun o'rganilgan ma'lumotlar bir necha marotaba takrorlanishi lozim. Takrorlash jarayoni mnemonikaning asosiy qonunlaridan biri bo'lib, u xotiraning uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar yangi so'zlar yoki ma'lumotlarni muntazam ravishda takrorlash orqali ular ongda aniqroq saqlanadi. Dastlab tez-tez takrorlash, keyin kamroq chastotada amalga oshiriladi, bu eslab qolishni kuchaytiradi.

Assotsiatsiya (Association): Assotsiatsiya qonuni yangi ma'lumotlarni allaqachon tanish bo'lgan bilimlar bilan bog'lashga asoslanadi. Bu bog'lanish yangi tushunchalarni osonroq eslab qolish va xotirada uzoqroq saqlash imkonini beradi. Masalan, yangi o'rganilgan so'z yoki tushuncha avvalgi bilim yoki tajriba bilan bog'lanadi, shunda ma'lumotlar mantiqiy tartibda joylashadi. Misol uchun, ingliz tilida "apple" so'zini o'rganayotganda, o'quvchi olmani ko'z oldiga keltiradi va uni haqiqatga asoslangan tajribasi bilan bog'laydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mnemonikaning ushbu uchta qonuni – taassurot, takrorlash, va assotsiatsiya – yodlash jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng asosiy tamoyillar hisoblanadi. Ushbu qonunlar yordamida o'quvchilar yangi ma'lumotlarni osonroq eslab qolishlari, kerakli vaqtda esa ularni xotiradan tezroq chiqarishlari mumkin bo'ladi [6]. Shuning uchun oddiy xotira bilan so'zlarni yodlab qolish qanchalik murakkab bo'lsa, mnemonika yordamida uni eslab qolish shunchalik oson bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi so'z boyligini kengaytirishga imkon beruvchi mnemonik usullarga quyidagilar kiradi:

-Yodlangan so'zlarning bosh harflaridan semantik iboralar yasash;

-Kvazi-so'zlarning yasaliishi. "Quasi" lotincha so'z bo'lib, u "qanday" degan ma'noni anglatadi. Kvazi-so'zlar tilda mavjud bo'lmagan yasama, o'ylab topilgan so'zlardir ;

- Qofiyalash. O'quvchilarga qofiyadosh yoki shaklan o'xshash bo'lgan so'zlar taklif etiladi

- Hayotiy faoliyat jarayonida eslab qolingan ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan assotsiatsiyalar (rasmlar, iboralar). Ushbu assotsiatsiyalarni shakllantirishda asosiy omil - bu tasvimga ifodaliligi. Chet tillarni o'rganishda fonetik assotsiatsiyalar muhim o'rin tutadi: ona tilidan yodlangan xorijiy tilga undosh so'zlarni tanlash. Masalan, quyidagi jadvalda ingliz va o'zbek tilida ma'nosi boshqa-boshqa bo'lsa ham, o'zaro o'xshab ketadigan va mnemonika jarayoniga faol tatbiq etish mumkin bo'lgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin (1 jadvalga qarang):

English	Uzbek
Cat-mushuk	Ket-buyruq fe'li-go away
Dog-kuchuk	Dog-spot
Sun-quyosh	San-ikkinci shaxs olmoshi (og'zaki nutqda)-you
Car-mashina	Kar-deaf
Eat-yemoq	It-dog
Family-oila	Familiya-surname
Free-bepul	Fri-qovurilgan kartoshka

O'qitishda mnemotexnikadan foydalanish o'quvchining rivojlanishi va bilimni kengaytirish bilan bir qatorda monotonlik uchun samarali vositadir. Bu xotiraning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki bu orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchi so'zlarni, iboralarni shunchaki xotirada saqlab qolishni emas, balki ularni muloqotda qo'llashni ham o'zlashtira oladi. O'qitishda mnemotexnikadan foydalanish o'quvchining rivojlanishi va bilimni kengaytirish bilan bir qatorda monotonlikni yengish uchun ham samarali vositadir. Tilni o'zlashtirish uchun kamida ikki-uch ming so'zni o'rganish kerak. Mnemonikadan foydalanish so'z yodlashdagi qiyinchiliklarni samarali yengishni, ingliz tilidagi kundalik so'zlar, tasavvur va fantaziya darajasini o'ziga xos tarzda shakllantirishni ta'minlaydi [7].

Mnemonika texnikasini turli mavzulardagi so'zlarni o'zlashtirish uchun har xil vositalaridan foydalangan holda assotsiatsiyalar yaratish jarayonida qo'llash mumkin. Buning uchun rangli qalamlar yoki Cuisenaire Rods (yog'och tayoqlar)dan foydalanish mumkin. Masalan, darsda "bad (yomon)" leksik birligini mustahkamlash uchun biz o'quvchilarga oq tayoqni ko'rsatishimiz mumkin, uni shartli ravishda "yaxshi" deb kodlashimiz va keyin qora tayoqni ko'rsatish orqali ularda "yomon" kontrast assotsiatsiyasini uyg'otishimiz mumkin. (Agar "oq" "yaxshi" bo'lsa, "qora"-yomon ma'nosida taqqoslanadi).

Shuningdek, o'quvchilarning tasavvurida to'g'ridan-to'g'ri assotsiatsiyalar paydo bo'lishiga olib keladigan yoki ularni birgalikda kodlaydigan ko'plab leksik birliklarni kiritishin va mashq qildirish mumkin. Misol uchun:

Temperature (harorat): red-hot, blue-cold (qizil - issiq, ko'k - sovuq);

Seasons-fasllar: white-winter, light gree-spring, green-yashil, yellow-autumn (oq - qish, och yashil - bahor, yashil - yoz, sariq - kuz);

Fruits-mevalar: yellow-banana, orange-apelsin, violet-plum, green-grapes, red-apple (sariq - banan, apelsin - apelsin, ko'k - olxo'ri, yashil - uzum, qizil - olma) va boshqalar.

Shakl ham ongimizda turli assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Chizma (masalan, turli xil geometrik shakllar) yoki plastilindan foydalanib, siz to'g'ridan-to'g'ri assotsiatsiyalar yoki assosiati

xotira yordamida yaratilgan shartli so'zlardan foydalangan holda turli xil lug'atlarni kiritishingiz va mashq qildirishingiz mumkin: o'yinchoqlar (doira - to'p, kvadrat - kub, dumli romb - varrak, uchburchak va doira - qo'g'irchoq).

Shuningdek, (wh- questions) savol so'zlarini mnemonika yordamida ingliz adabiyotining qisqa she'r va hikoyalarni mohirona yozuvchisi Rudyard Kipling (1865-1936) ning eslab qolish oson bo'lgan to'rtligidan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchisiga tanishtirish tavsiya etiladi:

I have six honest serving men.

They taught me all I knew,

Their names are WHAT and WHY and WHEN

And HOW and WHERE and WHO

She'rning hissiy ekspressivligi noaniq "grammatik" so'zlarni eslab qolish qo'rquvini yo'q qiladi va ritm va qofiya kamida bitta so'zni yod olishga qiyin deb hisoblab "yo'qotish" ga imkon bermaydi. O'yin shaklida qisqa she'rlar yordamida o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarida turli mavzulardagi so'z boyligini ham oshirishlari mumkin. Masalan, oy nomlari va ularning tartibini quyidagi mnemonik she'r orqali qiziqarli va noodatiy tarzda yodlash mumkin:

Just (January-yanvar)

For (February-fevral)

Memory (March-mart)

A (April-aprel)

Mouse (May-may)

Jumps (June-iyun)

Jelly (July-iyul)

And (August-avgust)

Somebody (September-sentabr)

Orange (October-oktabr)

Never (November-noyabr)

Diet (December-dekabr)

Demak, mnemonika (mnemonics) bu tizimga asoslangan yodlash texnikasi bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy jarayonlariga ta'sir qiluvchi turli xil vositalardan foydalanadi. Ushbu usullar ingliz tilidagi yangi so'zlarni va tushunchalarini

o'rgatishda juda samarali bo'lib, o'quvchilarga ma'lumotlarni eslab qolish jarayonini osonlashtiradi va keyinchalik ularni doimiy ravishda xotirada saqlashga yordam beradi. ingliz tilidagi yangi so'zlarni o'rganayotganda, so'zlarni vizual tasvirlar, qiziqarli assotsiatsiyalar yoki qisqa hikoyalar bilan bog'lash orqali ularni xotirada mustahkam saqlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. 1-2-sinf o'quvchilariga ingliz tili lug'atini o'rgatishda mnemonikadan foydalanish samarali, qiziqarli va zavqli usuldir. Bu bolalarning kognitiv va hissiy rivojlanishiga yordam beradi va ularga yangi so'zlar bilan doimiy aloqa o'rnatishga

yordam beradi. Ko'rgazmali qo'llanmalar, qofiyalar, harakatlar va hikoyalardan foydalanish orqali o'qituvchilar tabiiy va interaktiv tarzda leksikani o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. Bu nafaqat yosh o'quvchilar uchun o'rganishni qiziqarli qiladi, balki ularning kelajakdagi til rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi, xotirani saqlashni kuchaytiradi va til o'rganishga ishtiyoqni kuchaytiradi. Ingliz tili darslarida mnemonikadan foydalanish katta resurslarni talab qilmaydi, biroq u o'quvchilarning faolligi va ingliz tilidagi so'z boyligini oshirish nuqtai nazaridan samarali metod hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Atkinson, R. C. (1975). "Mnemonics in second-language learning." *American Psychologist*, 30(8), 821-828.
2. Baddeley, A. D. (1990). *Human Memory: Theory and Practice*. Psychology Press.
3. Dictionary, O. E. (1989). *Oxford english dictionary*. Simpson, J. & Weiner, E., 3.
4. Harmer, J. (2002). *Macmillan English dictionary for advanced learners*.
5. Hulstijn, J. H. (1997). "Mnemonic methods in foreign language vocabulary learning." In Coady, J., & Huckin, T. (Eds.), *Second Language Vocabulary Acquisition* (pp. 203-224). Cambridge University Press.
6. Paivio, A. (1986). *Mental Representations: A Dual Coding Approach*. Oxford University Press.
7. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching* (3rd ed.). Macmillan Education.